

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**ABDULLAYEV AKMALJON YO‘LCHIBOYEVICH**

**GUVOHNING YOKI JABRLANUVCHINING BILA TURIB YOLG‘ON  
KO‘RSATUV BERISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq  
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление авторефератга диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Abdullayev Akmaljon Yo‘lchiboyevich**

Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish..... 3

**Абдуллаев Акмалжон Йулчибоевич**

Совершенствование расследования преступлений, связанных с заведомо ложными показаниями свидетеля или потерпевшего..... 25

**Abdullayev Akmaljon Yulchiboyevich**

Improvement of the investigation of crimes of witness or victim’s willingly given false testimony ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**ABDULLAYEV AKMALJON YO‘LCHIBOYEVICH**

**GUVOHNING YOKI JABRLANUVCHINING BILA TURIB YOLG‘ON  
KO‘RSATUV BERISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq  
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.4.PhD/Yu1246 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://proacademy.uz>) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (<http://library.ziyonet.uz>) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich**

yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Astanov Istam Rustamovich**

yuridik fanlar doktori, professor

**Barakayev Lazizjon Otaqulovich**

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (99871) 202-04-96; e-mail: [info@proacademy.uz](mailto:info@proacademy.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (58-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (99871) 202-04-96).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 04-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 04-iyundagi 23-raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.A. Aminjonova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**Sh.I. Shayzakov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**V. Karimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda jinoyatlarni tez va to‘la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsni fosh etish, jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash, aybsiz insonni javobgarlikka tortilmasligi va jinoyat ishi bo‘yicha adolatni qaror topishida jamoatchilik vakillari, xususan guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlovni yuritish borasida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlashga bag‘ishlangan Doha deklaratsiyasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasida fuqarolar va jamoat tashkilotlarining yordamidan unumli foydalanish zaruriyati o‘z aksini topgan<sup>1</sup>. Xalqaro tergovchilar assotsiatsiyasining ma‘lumotiga ko‘ra, sodir etilgan barcha turdagi jinoyatlarning 42 foizini tez va to‘liq aniqlanishi hamda ularni sodir etgan shaxslarning aybini isbotlanishida aynan guvoh va jabrlanuvchilarning bergan ko‘rsatuvlari eng asosiy dalil manbai bo‘lib xizmat qilgan<sup>2</sup>. Shunday bo‘lsada, “Innocence Project” tashkilotining hisobotida, birgina AQSHda DNK testi natijalari asosida oqlangan shaxslarning 69 foizi aynan guvoh va jabrlanuvchilarning bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligini ko‘rsatganligi mazkur masalaga alohida e‘tibor qaratish zaruratini taqozo etmoqda<sup>3</sup>.

Jahonda odil sudlovni amalga oshirishda guvoh va jabrlanuvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlarining faoliyatida guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishining oldini olish yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, “bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish”ning mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritish, huquqni qo‘llash amaliyotida bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishning sabab va omillarini aniqlash, tergovga qadar tekshiruv bosqichida bila turib yolg‘on guvohlik bergan shaxslarning javobgarlikka tortish asoslarini ishlab chiqish, shaxslarning bergan ko‘rsatuvlarini yolg‘on yoki yolg‘on emasligini aniqlash bo‘yicha mavjud metodikalarni takomillashtirish, guvoh va jabrlanuvchi tomonidan yolg‘on ko‘rsatuv berilishining oldini olish hamda aniqlash bo‘yicha o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tergov va protsessual harakatlar tasnifi hamda ularni amalga oshirish ketma-ketligi (algoritmi)ni ishlab chiqish, yolg‘on ko‘rsatuvlarni aniqlash va shaxsning aybini isbotlashda zamonaviy texnikalardan unumli foydalanish, tergovchining xizmat xonasini shaxslarning ko‘rsatuvlariga ijobiy ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan narsa va buyumlar bilan jihozlash, shaxslarning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlashni yanada takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda jinoyatlarni tergov qilish sohasini takomillashtirish borasida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning “Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezon sifatida belgilash” deb nomlangan 14-maqsadida jinoyat, jinoyat-protsessual

<sup>1</sup> [https://www.unodc.org/documents/congress/Declaration/V1504153\\_Russian.pdf](https://www.unodc.org/documents/congress/Declaration/V1504153_Russian.pdf)

<sup>2</sup> <https://acfepublic.s3.us-west-2.amazonaws.com/2022+Report+to+the+Nations.pdf>

<sup>3</sup> <https://innocenceproject.org>

va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish kabi vazifalarni belgilanganligi jinoyat protsessida guvoh va jabrlanuvchilarning bila turib yolgʻon koʻrsatuv berishining oldini olish kabi masalalarni takomillashtirish lozimligini taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2017-yil 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida toʻgʻrisida”gi farmonlari, shuningdek 2018-yil 14-maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 3-sentyabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini taʼminlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolgʻon koʻrsatuv berish jinoyatlarining ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlari Gʻ. Abdumajidov, R.A. Alimova, Q. Abdurasulova, O.D. Allanazarov, D.B. Bazarova, M.D. Botayev, I. Ismailov, R. Kabulov, Sh.A. Kulmatov, Yu. Karaketov, D.M. Mirazov, M.E. Muminov, B.B. Murodov, A.N. Norboyev, A.X. Raxmanqulov, M.X. Rustamboyev va A.I. Toshpoʻlatovlar tomonidan tayyorlangan oʻquv qoʻllanmalar, ilmiy ishlar va darsliklarda oʻrganilgan.

MDHga aʼzo davlatlarning olimlari A.A. Aubakirova, R.S. Belkin, V. Baxin, L.Y. Drapkin, O.G. Karnauxova, O.A. Karpenko, M. Kogamov, N. Karpov, A.R. Ratinov va O.V. Chelischevalar tomonidan guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolgʻon koʻrsatuv berishi bilan bogʻliq jinoyatlarning kriminalistik jihatlari, S.A. Garkaves, Ye. Bragina, S. Zaysev, I. Yegorov, L. Ilchenko, A. Dereviskiylar tomonidan psixologik jihatlari tadqiq etilgan.

Bundan tashqari, Solomon Asch, A. Brasser, G. Gross, G.S. Goodman, G.H. Gudjonsson, J. Dyupra, S.M. Kassin, Melinder, E.F. Loftus, R. Uayzmner, O. Fray, A. Piz, Pol Ekman, S.A. Christianson, G.L. Wells kabi xorijiy olimlar tomonidan yolgʻon koʻrsatuv berishning psixologik jihatlari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilgan<sup>4</sup>.

Hozirga qadar guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolgʻon koʻrsatuv berishi bilan bogʻliq jinoyatlarni tergov qilishda bila turib yolgʻon koʻrsatuv berishning sabab va omillarini aniqlash, tergovga qadar tekshiruv bosqichida bila turib yolgʻon guvohlik bergan shaxslarning javobgarlikka tortish asoslarini ishlab chiqish, shaxsning bergan koʻrsatuvlarida yolgʻon maʼlumotlar mavjudligini aniqlash va uning aybini isbotlashda

---

<sup>4</sup>Mazkur olimlar ishlarining toʻliq roʻyxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida keltirilgan.

poligraf va boshqa zamonaviy texnikalardan unumli foydalanish, shuningdek ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda guvoh va jabrlanuvchi tomonidan yolg'on ko'rsatuv berilishining oldini olish hamda aniqlash bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar ketma-ketligi (algoritmi)ni ishlab chiqish bilan bog'liq umumnazariy va amaliy tUSDagi muammolar maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatini nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilish;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining kriminalistik sabab va omillarini o'rganish;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatining kriminalistik tavsifini ishlab chiqish va uning elementlarini belgilash;

guvohning yoki jabrlanuvchining yolg'on ko'rsatuv berganligi aniqlanganida tergovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar tasnifini ishlab chiqish;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi bilan bog'liq jinoyatlar doirasida so'roq qilish taktikasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi jinoyatlari bo'yicha poligrafdan foydalanish asoslari va shartlarini ishlab chiqish;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishga oid ayrim ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganib, ularni sud-tergov amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishga doir qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektni** guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishda vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, intervyu, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishining oldini olish hamda kelgusida ular tomonidan bergan ko'rsatuvlarini qasddan o'zgartirish holatlariga barham berish maqsadida so'roq qilish tergov harakatini o'tkazish davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati asoslantirilgan;

shaxs o'zining yoki yaqin qarindoshining manfaatlariga taalluqli holatlar bo'yicha guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o'zining roziligi bilan ko'rsatuv berishi mumkinligi asoslantirilgan;

hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligiga doir konstitutsiyaviy norma talablaridan kelib chiqqan holda jinoyat-protsessual munosabatlarda guvoh va jabrlanuvchiga o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatuv bermaslikka doir huquqlari tushuntirilib, ulardan faqat o'zlarining roziligi asosida ko'rsatuv olish mumkinligi asoslantirilgan;

aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz qilgan yoki o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan, tarjimon ishtirokida o'tkaziladigan, uzrli sabablarga ko'ra kelgusida sudda ishtirok eta olmaydigan, nutqiy xususiyatlarini bayonnomada aks ettirish qiyin yoki bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi mumkinligi haqida asosli ma'lumotlar mavjud bo'lgan, shuningdek ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokida o'tkaziladigan so'roq qilish jarayonini videoyozuv orqali to'liq qayd etish shartligi asoslantirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishga doir protsessual normalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilish orqali “yolg'on guvohlik”, “yolg'on ko'rsatuv” va “bila turib berilgan yolg'on ko'rsatuv” kabi tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

tergov harakatlarini o'tkazish davomida guvoh yoki jabrlanuvchilarning bila turib yolg'on ko'rsatuv berishiga olib keluvchi sabab va omillar aniqlanib, ular obyektiv va subyektiv belgilari asosida tasniflangan;

guvoh yoki jabrlanuvchilarni ko'rsatuv berishdan bosh tortishi yoki bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olish, shuningdek ular tomonidan to'g'ri ko'rsatuvlar berilishiga erishish maqsadida tergov harakatlarini o'tkazish davomida xalqimizning mentaliteti va o'ziga xos ma'naviyatiga doir hikmatlardan unumli foydalanish zarurati asoslantirilgan;

gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ga tegishli holatlar yuzasidan guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilishdan avval ularning roziligi olinishi va shundan keyingina ularni bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirish zarurligi asoslantirilgan;

guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olish va aniqlash maqsadida tergovchi guvoh yoki jabrlanuvchi ishtirokida o'tkaziladigan tergov harakatlariga puxta tayyorgarlik ko'rish lozimligi asoslantirilgan;

guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlari bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi ishlab chiqilgan;

shaxslarning bila turib yolg'on ko'rsatuv berganligini isbotlash uchun o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar tasnifi ishlab chiqilgan;

tergovga qadar tekshiruv bosqichida shaxslardan tushuntirishlar olishda ularning yolg'on ma'lumotlar berganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilash zarurati asoslantirilgan;

huquqni qo'llash amaliyotida guvoh yoki jabrlanuvchilarning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar bo'yicha bergan ko'rsatuvlarini yolg'on yoki haqqoniy ekanligini aniqlash maqsadida "Psixofiziologik ekspertiza" imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarurati asoslantirilgan;

tergov amaliyotida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ga tegishli holatlar yuzasidan guvoh yoki jabrlanuvchining faqat o'zining roziligi bilan ko'rsatuv berishi haqidagi arizasi va ularni so'roq qilish bayonnomasining namunaviy shakllari tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyotiga asoslangan. Shu bilan birga, tadqiqot natijasi bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalar 920 nafar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov, prokuratura va advokatura, sud hamda ilmiy-pedagog xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar, 2021-2024-yillardagi statistik ma'lumotlar, shuningdek 551 ta jinoyat ishlari va 188 ta sud hukmlarining tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, qonunni qo'llash amaliyoti, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek "Jinoyat huquqi", "Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish", "Tergovga qadar tekshiruv faoliyati", "Jinoyat-protsessual huquq", "Tergov faoliyati" va "Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi" kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar, takliflar va tavsiyalar huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishda, shuningdek, guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuvlarini tekshirishni takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoyatlarni tergov qilish davomida guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishining oldini olish hamda kelgusida ular tomonidan bergan ko'rsatuvlarini qasddan o'zgartirish holatlariga barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksini (keyingi o'rinlarda – JPK deb yuritiladi) "So'roq jarayonini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish shart bo'lgan hollar" ko'rsatib o'tilgan yangi 106<sup>1</sup>-moddasi bilan to'ldirish haqidagi taklifidan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun

loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 3/08-220-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ishni sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan haqqoniy ko'rsatuv berilishiga erishish orqali odil sudlovni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi;

shaxs o'zining yoki yaqin qarindoshining manfaatlariga taalluqli holatlar bo'yicha guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o'zining roziligi bilan ko'rsatuv berishi mumkinligiga doir taklifidan 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi to'rtinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2024-yil 21-iyundagi 04/2-10/245-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi ishni sudga qadar yuritish bosqichida guvoh hamda jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 28-moddasi to'rtinchi qismi talablarini, ya'ni hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligiga doir talablarni jinoyat-protsessual munosabatlarda to'liq ijro etilishini ta'minlash maqsadida shaxsga uning protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar undan biron-bir yozma yoki og'zaki ko'rsatuvlar olish taqiqlanishi haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2021-yil 18-fevraldagi qonuni 2-moddasining 12-bandida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 3/08-220-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning joriy etilishi hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligiga doir konstitutsiyaviy norma talablarini surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida guvoh va jabrlanuvchiga o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatuv bermaslikka doir huquqlari tushuntirilganidan keyingina ulardan faqat o'zlarining roziligi bilan ko'rsatuv olish mumkinligi ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan;

aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz qilgan yoki o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan, tarjimon ishtirokida o'tkaziladigan, uzrli sabablarga ko'ra kelgusida sudda ishtirok eta olmaydigan, nutqiy xususiyatlarini bayonnomada aks ettirish qiyin yoki bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi mumkinligi haqida asosli ma'lumotlar mavjud bo'lgan, shuningdek ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokida o'tkaziladigan so'roq qilish jarayonini videoyozuv orqali to'liq qayd etish shartligi haqidagi taklifidan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 3/08-220-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ishni sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan haqqoniy ko'rsatuv berilishiga erishish orqali odil sudlovni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, OAK tomonidan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 9 ta (shundan 2 tasi xorijda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, oltita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning o'rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy izlanish davomida foydalanilgan usullar, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, amaliyotga joriy etilishi, ular bo'yicha nashr etilgan ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarining nazariy-huquqiy asoslari va kriminalistik tavsifi”** deb nomlangan bo'lib, unda bir qator nazariy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari, guvoh yoki jabrlanuvchilar tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishiga undovchi sabab va omillar, tadqiq etilayotgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi va ularning mazkur toifadagi jinoyatlarni samarali tergov qilishni tashkil etishdagi ahamiyati, olimlarning tadqiqot mavzusiga oid fikr-mulohazalari bo'yicha tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Ushbu bobning *“Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatining ilmiy-nazariy va huquqiy tahlili”* deb nomlangan birinchi paragrafida huquqni qo'llash amaliyotida yolg'on ko'rsatuvga huquqiy baho berishdagi ayrim masalalar har tomonlama muhokama qilingan. Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishiga undovchi, shart-sharoit yaratuvchi sabab va omillar alohida tasniflarga ajratilgan holda tadqiq etilgan.

Muallif o'zbek atamashunosligidan kelib chiqqan holda “ko'rsatuv”, “ko'rsatma”, “guvohlik” hamda “yolg'on guvohlik”, “yolg'on ko'rsatuv” va “bila turib berilgan yolg'on ko'rsatuv” jumllarining mazmun-mohiyati va ularning o'rtasidagi farqli jihatlar yuzasidan chuqur mulohaza yuritib, guvoh yoki jabrlanuvchini Jinoyat kodeksining 238-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortishga ularning “yolg'on ko'rsatuv” emas, balki faqat “bila turib bergan yolg'on ko'rsatuv” asos bo'ladi degan xulosaga kelgan. Shuningdek, “yolg'on guvohlik”, “yolg'on ko'rsatuv” va “bila turib berilgan yolg'on ko'rsatuv” tushunchalariga mualliflik ta'rifi shakllantirilgan.

Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili, aksariyat holatlarda jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish va ularning natijalari bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish, ishni qo'zg'atishni rad etish hamda ariza yoki xabarni tergovga

tegishliligiga qarab yuborish haqidagi qarorlarni qabul qilishda eng asosiy daliliy manba shaxslarning tushuntirish xati va ekspertning xulosasi ekanligini ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda shaxslardan tushuntirish olinishiga doir tartib va talablarning mavjud emasligi, tushuntirish xatida yolg'on ma'lumotlarni aks ettirganlik yoki ekspert tomonidan yolg'on xulosa berganlik uchun javobgarlikning belgilanmaganligi, bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etilishiga to'sqinlik qilayotgan eng asosiy omillardan biri ekanligi qayd etilib, dissertant tomonidan ularni bartaraf etish uchun tergovga qadar tekshiruv bosqichida shaxslardan tushuntirishlar olishda ularning yolg'on ma'lumotlar berganligi uchun javobgarlik belgilash zarurati asoslantirilgan. Mazkur taklif so'rovdan ishtirok etgan respondentlarning 92 foizi tomonidan ma'qullangan.

Dissertant tomonidan G.S. Goodman, G.H. Gudjonsson, A.A. Zakatov, O.G. Karnauxova, S.M. Kassin, A. Melinder va S.P. Shepelova kabi bir qator xorijiy olimlar qarashlari hamda huquqni qo'llash amaliyoti o'rganilib, guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi sabab va omillarining tasnifini ishlab chiqilgan.

*Quyidagilar sabab sifatida ko'rsatilgan:* qo'rquv; g'arazli va past niyatlar; o'zini himoya qilish; qarindoshi va boshqa yaqinlari manfaatlarini himoya qilish; achinish hissi; huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchsizligi yoki salbiy munosabati va boshq..

Tadqiqotda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining omillari obyektiv va subyektivga ajratilgan. *Obyektiv omillarga:* ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar; tergovchi yoki surishtiruvchining kasbiy mahoratini yetishmasligi; guvoh yoki jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar va boshq. *Subyektiv omillarga:* shaxsning xarakter va temperamenti; hissiy holati; jinoiy hodisa ishtirokchilari bilan yaqin munosabatlari; jinoiy hodisaga nisbatan munosabati; jinsi va unga bog'liq psixologik fazilatlar; yoshga oid xususiyatlari va boshq..

Ushbu bobning "*Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida ushbu jinoyatlarning kriminalistik tavsifi va ularning elementlarini yoritishga alohida e'tibor qaratilgan. Dissertant G.A. Abdumajidov, R.A. Alimova, R.S. Belkin, L.Y. Drapkin, A.N. Norboyev, A.N. Kolesnichenko, V.Ye. Konovalova, N.A. Selivanov va N.P. Yablokov kabi olimlar tomonidan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi hamda uning elementlariga oid bildirilgan fikr-mulohazalar bilan bahsga kirishib, "guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi jinoyatining kriminalistik tavsifi"ga nisbatan o'zining mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan.

Shuningdek, tadqiqot ishida o'rganilayotgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi asosiy elementlariga quyidagilarni kiritish tavsiya etilgan: jinoyatni sodir etish usuli va vositasi; jinoyatni sodir etish holatlari; guvoh yoki jabrlanuvchi qoldirgan izlarning xususiyatlari; guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish maqsadi, sabablari va omillari, unga imkon bergan shart-sharoitlar; jinoyat sodir etgan guvoh va jabrlanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar; jinoyatning oqibatlari.

Mamlakatimizda 2021-2024-yillar davomida 778 nafar shaxslar tomonidan jami 551 ta yolg'on guvohlik berish jinoyatlari sodir etilgan bo'lib, ularning 10 tasigina ekspertning bila turib yolg'on xulosa berishi bilan bog'liq bo'lgan. E'tiborlisi,

tarjimonning bila turib noto'g'ri tarjima qilishi bilan bog'liq jinoyatlar umuman sodir etilmagan.

Tadqiqotchi tomonidan mazkur jinoyatlarga doir statistik ma'lumotlar, tergovga qadar tekshiruv materiallari va jinoyat ishlarini o'rganish orqali quyidagi mezonlar asosida tahlil qilingan: yillar kesimida; jinoyatni protsessning qaysi bosqichida aniqlanganligi bo'yicha; ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra; jinoyat sodir etgan shaxslarning jinsi bo'yicha; jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi bo'yicha; jinoyat sodir etgan shaxslarning tanishlik darajasi bo'yicha; jinoyat sodir etgan shaxslarning fuqaroligi bo'yicha; jinoyat sodir etganlarning ijtimoiy ahvoriga ko'ra; sodir etilgan jinoyat doirasi bo'yicha.

Jinoyat ishi hujjatlarini o'rganish natijalari asosida, guvoh yoki jabrlanuvchilar tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyati asosan yolg'on xabar berish, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish va tovlamachilik bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari doirasida sodir etilishi ma'lum bo'ldi. Mazkur omillarni inobatga olib, dissertant ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda guvoh yoki jabrlanuvchilar tomonidan beriladigan ko'rsatuvlarning yolg'on yoki haqqoniyligiga alohida e'tibor qaratish va ularning ko'rsatuvlarini ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan to'liq tekshirish lozim degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning **“Guvoh yoki jabrlanuvchilarning bila turib bergan yolg'on ko'rsatuvlarini aniqlash va ularni isbotlash taktikasi”** nomli ikkinchi bobida guvoh yoki jabrlanuvchilar tomonidan berilgan ko'rsatuvlarni yolg'on ekanligini aniqlash va isbotlash uchun o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar tizimi hamda maxsus bilimlardan foydalanish masalalari bayon etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Guvohlar va jabrlanuvchilarning bila turib bergan yolg'on ko'rsatuvlarini aniqlash taktikasi”* ga bag'ishlangan bo'lib, unda tergov organlari tomonidan guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib bergan yolg'on ko'rsatuvlarini o'z vaqtida va to'liq aniqlash uchun e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar haqida fikr yuritilgan.

Dissertant N.Z. Rasulova, I.M. Xakimova kabi milliy, A. Brasser, A. Dereviskiy, S. Zaysev, Albert Mexrabian, D. Morris, A. Piz, A. Sheflen, Pol Ekman kabi xorijiy davlatlarning ko'zga ko'ringan psixologlarining noverbal muloqot vositalaridan biri hisoblangan tana holati, ya'ni qo'llar, oyoqlar, bosh, tananing holati va ularning tinglovchiga nisbatan joylashishi, nutqi, illyustrativ, emblematic va manipulyativ imo-ishoralari huquqni qo'llash amaliyotida faoliyat olib borayotgan tergovchilar uchun guvoh yoki jabrlanuvchilar tomonidan bila turib berilgan yolg'onni aniqlashning eng samarali usuli ekanligi haqida xulosaga kelgan.

Muallif tomonidan yolg'on ko'rsatuvni tergov harakatini o'tkazish davomida guvoh yoki jabrlanuvchini kuzatish va olingan ma'lumotlarni solishtirish yordamida aniqlash mumkinligi asoslantirilgan. Xususan, kuzatish jarayonida muloqot vaqtida tananing alohida qismlariga (qo'llar, oyoqlar, bosh) va yuz ifodalariga (ko'zlar, qoshlar, lablar) e'tibor berish, hissiyotlari va fikrlarining tashqi ifodalanişini ko'rsatuvchi barcha belgilarini o'zaro solishtirish orqali baholash, shubhali belgilar namoyon bo'lganida, ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, yolg'onni ifodalovchi belgilarni bir yoqlama talqin qilishdan qochish, ayrim namoyon bo'layotgan belgilarga ko'ra guvoh yoki

jabrlanuvchi yolgʻon koʻrsatuv bermoqda, deb aniq xulosa chiqarmaslik, soʻroq jarayonida toʻplangan maʼlumotlarni tahlil qilish va ishdagi boshqa dalillar bilan taqqoslash.

Shuningdek, guvoh yoki jabrlanuvchini kuzatish orqali uning yolgʻon koʻrsatuv berayotganligi haqida tergovchida shubha paydo boʻlsa, soʻroq qilinayotgan shaxsning koʻrsatuvlaridagi maʼlumotlarni boshqa tergov harakatlarini oʻtkazish orqali aniqlashtirish, xususan koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish, yuzlashtirish, tanib olish uchun koʻrsatish, koʻrsatuvlardagi maʼlumotlarga tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazish yoʻli bilan oydinlik kiritish, tergovga qadar tekshiruv materiallarini oʻrganish va ularni jinoyat ishidagi mavjud dalillar bilan qiyoslash orqali aniqlashi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqot ishida guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan qasddan bila turib yolgʻon koʻrsatuv berish holatlarining oldini olish va ularni oʻz vaqtida aniqlash uchun soʻroq qilish tergov harakatini oʻtkazish davomida eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan quyidagi holatlar tasnifi ishlab chiqilgan: *koʻrsatuvlar mazmuni bilan bogʻliq holatlar*: shaxsning qoʻshimcha soʻroqda bergan koʻrsatuvlarini, uning birinchi soʻroqda bergan koʻrsatuvlariga nomutanosibliigi; shaxsning bergan koʻrsatuvlarini jinoyat ishida mavjud boʻlgan boshqa dalillar mazmuniga zid kelishi; barcha soʻroqlarda ishga doir faktlarni soʻzma-soʻz, bir xil tarzda, xuddi yodlab olgandek tasvirlash; berilgan koʻrsatuvning mavhumligi; koʻrsatuvlarida faqat eslab qolish va takrorlashga oson boʻlgan muayyan qolipga solingan maʼlumotlarni berish bilan cheklanishi; guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan berilgan koʻrsatuvlarda, mazmunini oʻzlari anglab yetmaydigan (tushunmaydigan) jumladan foydalanishi; koʻrsatuvlarida ayrim holatlarni yoritishdan bosh tortishi; *shaxsning xatti-harakatlari bilan bogʻliq holatlar*: tergovchi tomonidan berilgan aniq savollarga javob berishdan qochish; berilgan savolni takrorlash va tergovchida savol noaniq degan taassurot uygʻotishga urinish; bergan koʻrsatuvlarida hodisalar va faktlarni tavsiflovchi tafsilotlarning yoʻqligi; soʻroq paytida muayyan soʻz yoki jumlaning qayta-qayta va oʻrinsiz ravishda takrorlashi; soʻroq qilish davomida oʻzi anglamagan holatda jinoyat ishidagi mavjud dalillarga mutanosib boʻlgan koʻrsatuvlarni berishi va bunga qattiq norozilik munosabatini bildirishi; koʻrsatuvlarda his-tuygʻularni ifoda etuvchi soʻzlar va iboralarning haddan tashqari koʻpligi yoki ularni umuman yoʻqligi; haddan tashqari oʻzini pokligi va halolligini taʼkidlab, ish natijalaridan umuman manfaatdor emasligi haqida koʻp bora qayd etishi.

Ikkinchi bobning “*Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib bergan yolgʻon koʻrsatuvlarini aniqlash va isbotlashda oʻtkazilishi lozim boʻlgan tergov harakatlari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida, bila turib berilgan yolgʻon koʻrsatuvlarni aniqlash va isbot qilishda oʻtkazilishi mumkin boʻlgan tergov harakatlari tasnifi, ularni tashkil etishda eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan taktik va psixologik jihatlar, shuningdek tergov harakatlarining natijalarini samarali boʻlishi uchun tayyorgarlik koʻrish, oʻtkazish va ularni rasmiylashtirish bosqichlarida tergovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar tizimi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi huquqni qoʻllash amaliyotining tahliliga asoslanib, guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolgʻon koʻrsatuv berish jinoyatini tergov qilishda shaxsni ayblash uchun quyidagi holatlar isbotlangan boʻlishi lozim degan xulosaga kelgan: yolgʻon koʻrsatuv aynan qachon (*sodir etilgan vaqti*), qaysi bosqichda (*surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud*), qaysi tergov harakati davomida (*soʻroq qilish va boshqa tergov*

*harakatlari*) berilganligi, qaysi protsess ishtirokchisi tomonidan (*guvoh yoki jabrlanuvchi*), qanday usulda (*jinoyat ishini mohiyatan hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni to'liq yoki qisman buzib ko'rsatish, umuman sodir bo'lmagan hodisani sodir etilganligini qayd etish va boshqa*), yolg'on guvohlik berishning huquqiy oqibatlar haqida ogohlantirilganligi, qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligi, ayb shakli, motivi va maqsadi, yolg'on ko'rsatuvni bila turib berganligi, ayblanuvchi shaxsini tavsiflovchi holatlar, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar, ayblanuvchi bilan jabrlanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabati, ularning qarindoshlik darajasi, yolg'on ko'rsatuv bila turib uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab, xuddi shuningdek, shaxsni og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblash uchun berilganligi, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori (*aybsiz shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan yoki ehtiyot chorasi tanlangan, aybsiz shaxsga nisbatan ayblov hukmi, aybdor shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan va boshqa*), qilmishning jinoyiligi va jazolanishini istisno qiladigan holatlar (*guvoh yoki jabrlanuvchi buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish yoki jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida yolg'on ko'rsatuv bergan*), yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar mavjudligi, jinoyatni sodir etishga imkon bergan sabab va shart-sharoitlar.

Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili, bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishi aksariyat holatlarda guvoh yoki jabrlanuvchilarning so'roq qilish vaqtida kuzatilishini ko'rsatdi. Aynan mazkur omilni inobatga olib, tadqiqotchi tomonidan berilgan ko'rsatuvning yolg'on ekanligini isbotlash uchun qo'shimcha so'roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, eksperiment, guvohlantirish, ko'zdan kechirish, tintuv, ekspertiza tayinlash va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish lozimligi asoslantirilgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ishida jinoyat ishlari, xususan so'roq qilish bayonnomalarini o'rganish natijalaridan kelib chiqib, huquqni qo'llash amaliyotida so'roq qilish davomida taktik usullardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi, xususan tayyorgarlik ko'rmay turib guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish holatlarining mavjudligi bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishiga imkon berayotgan eng asosiy omillardan biri ekanligi haqida xulosaga kelingan.

Aynan mazkur omillar asosida, dissertant G.A. Abdumajidov, R.S. Belkin, A.R. Ratinov va O.V. Chelischeva kabi olimlar bilan ilmiy bahsga kirishib, so'roq qilishga tayyorgarlik ko'rish bosqichi nimalardan iborat bo'lishi lozimligi yuzasidan o'zining fikrlarini bildirgan. Xususan, mazkur bosqichda jinoyat ishi materiallari sinchiklab o'rganib chiqish, guvoh yoki jabrlanuvchilarni so'roq qilish ketma-ketligini belgilab, ularni so'roqqa chaqirish usulini aniqlash, ish holatlaridan kelib chiqqan holda so'roq o'tkazish joyi va vaqtini to'g'ri belgilash, so'roq qilinishi lozim bo'lgan guvoh yoki jabrlanuvchining ijtimoiy-demografik ma'lumotlari, psixologik va psixofiziologik holatlarini o'rganish, jinoyat ishi bo'yicha oydinlik kiritilishi lozim bo'lgan holatlar doirasidan kelib chiqqan holda so'roqda berilishi mumkin bo'lgan savollar ro'yxati va ularning birin-ketinligini belgilash, bila turib yolg'on ko'rsatuv berilishining oldini olish choralari belgilash, so'roqda ishtirok etishi shart bo'lgan boshqa protsess ishtirokchilariga o'z vaqtida xabar berish, so'roq jarayoni va natijalarini qayd qilish uchun kerakli texnik vositalarni tayyorlash, guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish rejasi, ya'ni

uning maqbul taktikasini tanlash kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etilgan.

Shu bilan bir qatorda, guvoh yoki jabrlanuvchilarni ko'rsatuv berishdan bosh tortishi yoki bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olish, shuningdek ular tomonidan to'g'ri ko'rsatuvlar berilishiga erishish maqsadida tergov harakatlarini o'tkazish davomida xalqimizning mentalitetiga xos bo'lgan, muqaddas kitoblar va go'zal axloqqa doir hikmatlardan unumli foydalanish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot ishida shaxslarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini hamda mol-mulkiga tajovuz qilish bilan bog'liq tahdidlarning mavjudligi, ular tomonidan yolg'on ko'rsatuv berilishiga majbur bo'lishiga sabab bo'layotgan omillardan biri sifatida qayd etilgan. Mazkur omilni inobatga olib, dissertant tomonidan so'roq qilishda guvoh yoki jabrlanuvchining o'zi, oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o'zga g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinish holatlari mavjud yoki mavjud emasligiga oydinlik kiritish shartligini asoslab berilgan.

Tadqiqotda guvoh yoki jabrlanuvchilarni bila turib bergan yolg'on ko'rsatuvlarini aniqlashda quyidagi taktik usullardan foydalanish zarurati asoslantirilgan: audio yoki video yozuvlardan foydalanish; tezkor-qidiruv faoliyati natijalari va ishda mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlardan samarali foydalanish; qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikni takror-takror eslatish; qo'shimcha so'roq qilish; jinoyat ishida guvoh yoki jabrlanuvchining yolg'on ko'rsatuv berayotganligini fosh etuvchi dalillar borligiga ishontirish; so'roq qiluvchiga voqealarning ehtimoliy rivojlanishini taqdim etish, diniy e'tiqodidan foydalanish.

Tadqiqot ishida so'roq qilish tergov harakatini o'tkazish davomida shaxslar bilan to'g'ri psixologik aloqa o'rnatish ular tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berish holatlarining oldini olish hamda ularni o'z vaqtida aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olinib, tergov harakatlarini o'tkazish davomida tergovchi tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi lozimligi asoslantirilgan: ko'rsatuv berayotgan shaxsning individual xususiyatlari (*yoshi, xarakteri, temperamenti, qiziqishlari, tug'ilgan joyi, yashash va ish joyi, ijtimoiy ahvoli, mansabi, mashg'ulot turi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, protsessning boshqa ishtirokchilariga munosabati, sudlangan yoki sudlanmaganligi va ish uchun ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan boshqa jihatlari*)ni o'rganish; shaxsni unga ijobiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan shaxslar orqali chaqirtirish; so'roqda hujjatlar va boshqa yozuvlardan foydalanish; tergovchi o'zining xatti-harakatlari bilan shaxsga jinoyatning tafsilotlari haqida to'liq xabardor ekanligini ko'rsatib, uni yolg'on ko'rsatuv berish yoki chalg'itishlarga urinish befoyda ekanligiga ishontirish; imkon qadar ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan savollarni to'g'ridan-to'g'ri berish yoki shu mazmundagi xatti-harakatlardan tiyilish.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan bo'lib, unda guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan bila turib beriladigan yolg'on ko'rsatuvlarni aniqlash bo'yicha bir qancha xorijiy mamlakatlarning tajribalari tahlil qilingan va bu turdagi jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning *“Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilish bo‘yicha xorijiy tajriba”* deb nomlanib, unda guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan bila turib beriladigan yolg‘onni aniqlash va shaxslarning aybini isbotlashda mavjud sun‘iy idrok, dasturiy ta‘minotlar va poligrafdan foydalanishga oid ayrim xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari, ularni milliy qonunchiligimizda aks ettirish masalalari ilgari surilgan.

Tadqiqot ishida AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Turkiya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va dunyoning boshqa 49 ta davlatida poligrafdan foydalanib kelinayotganligi hamda jinoyatlarni tergov qilishda ushbu qurilmadan foydalanishning salbiy va ijobiy tomonlari atroflicha tahlil qilinib, milliy huquqni qo‘llash amaliyotida poligrafdan foydalanishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan holatlarning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, muallif A.A.Aubakirova, R.S. Belkin, V. Baxin, M. Kogamov va N.Karpov kabi olimlar bilan ilmiy bahsga kirishib, poligraf testi so‘roqning bir qismi emas, balki ekspertiza tergov harakati doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvning bir ko‘rinishi sifatida faqat shaxsning roziligi yoki iltimosi bilan amalga oshirilishi mumkinligi hamda uning natijalari jinoyat ishi bo‘yicha daliliy kuchga ega bo‘lmazligi lozimligi asoslantirilgan.

Tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, tergovchilar so‘roq qilish tergov harakatini o‘tkazishda asosiy e‘tiborlarini so‘roq qilinayotgan shaxsning xatti-harakatlari va u tomonidan ko‘rsatuv berilishining o‘ziga xos jihatlari emas, balki so‘roq natijasi bo‘yicha rasmiylashtirilishi shart bo‘lgan bayonnoma mazmuniga qaratmoqdalar. Bu esa, so‘roq jarayonida bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish holatlarini o‘z vaqtida aniqlash va ular bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish imkonini bermayapti. Mazkur omillar inobatga olinib, tadqiqot ishida so‘roq qilish natijalari bo‘yicha bayonnomaning rasmiylashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish lozimligi asoslantirilgan.

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvining barcha sohalari qatorida jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun‘iy idrok imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, AQSHda sun‘iy idrok algoritmlari shaxsni qayta jinoyat sodir etish ehtimolini aniqlash, sud tomonidan qo‘shimcha jazo tayinlash, ehtiyot chorasini sifatida qamoqqa olish yoki shaxsni garov evaziga ozod qilish ehtimolini aniqlashda yordamchi vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Shunday bo‘lsada, o‘tkazilgan tadqiqotlar barcha holatlarda ham sun‘iy idrok imkoniyatlari jinoyat ishi bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatiga ega emasligini ko‘rsatdi. Mazkur omillar inobatga olinib, tadqiqotda sun‘iy idrok imkoniyatlaridan jinoyat ishi doirasida haqiqatni aniqlashda, jumladan to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali shaxsga berilishi mumkin bo‘lgan savollar ro‘yxatini shakllantirish va ularni berish ketma-ketligini belgilash, shuningdek, shaxsning hissiy holatlarini kuzatish yordamida ularni qay darajada to‘g‘ri ko‘rsatuv berayotganligi to‘g‘risida ma‘lumot olishda foydalanish lozimligi asoslantirilgan bo‘lsada, lekin sun‘iy idrokka shaxsning aybdorligiga doir masalalar yuzasidan yakuniy qaror qabul qilish huquqini berish mumkin emasligi haqida xulosaga kelingan.

Ushbu bobning *“Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish”* deb nomlangan ikkinchi

paragrafida, tadqiqot olib borilayotgan jinoyat turini tergov qilishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Huquqni qo'llash amaliyotini tahlili, ikki shaxsning bir-birining badaniga qasddan shikast yetkazish bilan bog'liq holatlarda, bitta shaxsni ish bo'yicha bir vaqtning o'zida ham jabrlanuvchi, ham gumon qilinuvchi tariqasida jalb qilinayotganligini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida bunday shaxslarni jabrlanuvchi sifatida so'roq qilishda ularni yolg'on guvohlik bermaslik bo'yicha ogohlantirish yoki ogohlantirmaslik masalasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur omillarni inobatga olib, dissertant tomonidan bitta jinoyat ishi doirasida ham jabrlanuvchi, ham gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsni, aynan mazkur ish doirasida guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilinganida ular ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmazligi asoslantirilgan.

Shuningdek, bu kabi tushunmovchiliklarni bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda, guruh a'zolaridan biriga qidiruv e'lon qilinganligi sababli uning qismi alohida ish yurituviga ajratilib, ishning asosiy qismi sudga yuborilgan holatlarda ham ko'rish mumkin. Xususan, asosiy ishni sudda ko'rish mobaynida qidiruvdagi shaxs ushlanib, uni sudda so'roq qilish va uyushgan guruhning qolgan a'zolari bilan yuzlashtirish zarurati yuzaga kelganida, tergov davom etayotgan ayblanuvchining suddagi huquqiy maqomi qanday bo'lishi, ya'ni uni kim sifatida (guvoh, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshq.) ishtirok etishi yuzasidan yagona yondashuv mavjud emas. Tadqiqotchining fikricha, bu kabi holatlarda, ayblanuvchini sudda ko'rilayotgan ish bo'yicha guvoh tariqasida so'roq qilish va yuzlashtirish kerakligi, lekin shu bilan birga aybsizlik prezumpsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda uni ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirish mumkin emas.

Jinoyat ishi materiallarini o'rganish natijalaridan, aksariyat holatlarda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli holatlar haqida guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilinayotganida ularning roziliklari olinmayotganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur holatni o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan sud-tergov amaliyoti xodimlarining 87 foizi tasdiqlagan. Qolaversa, ishlarning bir qismida bu toifadagi shaxslarni guvoh tariqasida so'roq qilishda ularning roziligi olinayotgan bo'lsada, lekin ularni bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun ogohlantirilmazlik holatlari ham mavjud. Bu esa, mazkur amaliyotni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga zid ekanligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan anketa so'rovnomasi natijalaridan ma'lum bo'ldiki, 83 foiz surishtiruvchi va tergovchilarning fikricha, guvoh yoki jabrlanuvchi faqatgina so'roq qilishda bila turib yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Vaholanki, guvoh yoki jabrlanuvchi yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish va eksperiment tergov harakatlarida ham yolg'on ko'rsatuv bermasligi shart. Lekin JPKda faqat so'roq qilish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish va eksperiment tergov harakatlarini o'tkazish davomida guvoh yoki jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirish lozimligi nazarda tutilgan. O'z navbatida, yuzlashtirish va tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatlarini o'tkazishda guvoh yoki jabrlanuvchilarni ogohlantirish masalasi qonun

chiqaruvchining e'tiboridan chetda qolganligi, tadqiqotchi tomonidan asosli tanqid qilinib, ularni ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirish zarur degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, tadqiqotda tergov harakatlarini o'tkazish davomida guvoh yoki jabrlanuvchi to'g'ri ko'rsatuvlar berish orqali jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda fuqaro yuksak onglilik, jasorat ko'rsatgani, ijtimoiy burchini namunali bajarganligi uchun tergovchi tomonidan jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan tartibda rag'batlantirilib borilishi zarurligi asoslantirilgan.

Tergov amaliyotida ko'p epizodli jinoyat ishlari doirasida so'roq qilish uchun bir necha guvoh va jabrlanuvchilarni aynan bir vaqtda chaqirilayotganligi, dissertant tomonidan salbiy holat sifatida baholangan. Sababi, tergovchining birgina mazkur taktik xatosi so'roq qilingan guvohlar bilan so'roq qilinmagan guvohlarni tergovchining savollari va ular bo'yicha berilgan javoblarning mazmuni yuzasidan o'zaro fikr almashishiga, ularning real voqelik bo'yicha beradigan ko'rsatuvlarini o'zgartirish ehtimolini oshishiga, so'roq tergov harakatining samaradorligini keskin pasayishiga va eng achinarlisi, ayrim holatlarda guvoh va jabrlanuvchilar tomonidan yolg'on ko'rsatuvlar berilishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur omillarni inobatga olib, dissertant huquqni qo'llash amaliyotida bunday amaliyotga zudlik bilan chek qo'yish lozim degan xulosaga kelgan.

Shuningdek, tahlillardan ma'lum bo'ldiki, ko'p epizodli jinoyat ishlari doirasida o'nlab, ayrim holatlarda esa yuzlab guvoh va jabrlanuvchilar alohida telegram guruhlarida birlashib, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan doimiy ravishda fikr almashib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida so'roq qilingan guvoh (jabrlanuvchi)lar tomonidan so'roq qilinmagan guvoh (jabrlanuvchi)larga tergovchi tomonidan beriladigan savollarga qanday mazmunda javob berilishi o'rgatilib, tergovning xolisona va to'liq o'tkazilmasligiga hamda tergov sirini fosh bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqotda bu kabi xatoliklarning oldini olish uchun tergovchi har bir guvoh va jabrlanuvchini JPKning 353-moddasida belgilangan tartibda JKning 239-moddasi bilan jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirib borish amaliyotini yo'lga qo'yish zarurati asoslantirgan.

Amalga oshirilgan tahlillar, xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ijobiy tajribalar va o'tkazilgan so'rov natijalari asosida JPKga bir qancha quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi haqida takliflar berilgan.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarga ajratilgan holda bayon etilgan:

**I. Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishga doir nazariy bilimlarni boyitishga qaratilgan ilmiy xulosa va tavsiyalar:**

1. Nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilish orqali quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

*Yolg'on guvohlik deganda* surishtiruv, dastlabki tergov yoxud sudda oldindan anglab, shunday qilmishni sodir etishni istagan holatda ish bo'yicha ahamiyatli bo'lgan

holatlarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi faktlar bo'yicha haqiqatga to'liq yoki qisman mos kelmaydigan yoxud mohiyati buzib ko'rsatilgan guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi va tarjimonning tarjimasini tushuniladi.

*Yolg'on ko'rsatuv deganda* surishtiruv, dastlabki tergov yoxud sudda oldindan anglab yoki anglamagan holatda ish bo'yicha ahamiyatli bo'lgan holatlarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi faktlar bo'yicha haqiqatga to'liq yoki qisman mos kelmaydigan yoxud mohiyati buzib ko'rsatilgan guvoh va jabrlanuvchining bergan ko'rsatuvlari tushuniladi.

*Bila turib berilgan yolg'on ko'rsatuv deganda* surishtiruv, dastlabki tergov yoxud sudda oldindan anglab, shunday qilmishni sodir etishni istagan holatda ish bo'yicha ahamiyatli bo'lgan holatlarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi faktlar bo'yicha haqiqatga to'liq yoki qisman mos kelmaydigan yoxud mohiyati buzib ko'rsatilgan guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuvlari tushuniladi.

2. JKning 238-moddasini jinoyat va jinoyat-protsessual huquq nazariyasida bir xil mazmunda tushunilishi hamda huquqni qo'llash amaliyotida o'z o'rnida va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash maqsadida "*yolg'on guvohlik*", "*yolg'on ko'rsatuv*" va "*bila turib berilgan yolg'on ko'rsatuv*" jumllalarining mazmunan o'xshash bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi farqli jihatlari yoritib berilgan.

3. Tergovga qadar tekshiruv bosqichi natijasi bo'yicha qonuniy va asosli qaror qabul qilishda shaxslarning bergan tushuntirishlari muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, tushuntirish xatida ish uchun ahamiyatli bo'lgan yoki ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar yuzasidan shaxslarning bila turib yolg'on ma'lumot berganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilash zarurati asoslantirilgan.

4. Guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishiga turtki bo'layotgan sabablarning qo'yidagi tasnifi ishlab chiqilgan: g'arazli yoki boshqa past niyatlar; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki ularning manfaatlarini ifoda etadigan boshqa shaxslar tomonidan tahdidlar; o'zining, qarindoshining yoki boshqa yaqinlarining manfaatlarini qonunga xilof tarzda himoya qilish; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki ularning yaqinlariga nisbatan achinish hissi; tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlab tergov organlariga yoki mazkur ishni yuritayotgan mansabdor shaxsga nisbatan ishonchsizlik yoki boshqa mazmundagi salbiy munosabat va boshq.

5. Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatining sodir etilishiga sabab bo'layotgan omillar obyektiv va subyektiv mezonlarga ajratilib, ularning quyidagi tasnifi ishlab chiqilgan:

*obyektiv omillarga:* ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar; tergovchi yoki surishtiruvchining kasbiy mahoratini yetishmasligi; guvoh yoki jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar va boshq.;

*subyektiv omillarga:* shaxsning xarakteri va temperamenti; hissiy holati; jinoiy hodisa ishtirokchilari bilan yaqin munosabatlari; jinoiy hodisaga nisbatan munosabati; jinsi va unga bog'liq psixologik fazilatlar; yoshga oid xususiyatlari va boshq.

6. Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlari yillar kesimida; jinoyatni jinoyat protsessining qaysi bosqichida aniqlanganligi bo'yicha; ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra; jinoyat sodir etgan shaxslarning jinsi bo'yicha; jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi bo'yicha; jinoyat sodir etgan shaxslarning tanishlik darajasi bo'yicha; jinoyat sodir etgan shaxslarning fuqaroligi bo'yicha; jinoyat

sodir etganlarning ijtimoiy ahvoriga ko'ra; sodir etilgan jinoyat doirasi kabi mezonlar asosida tahlil qilingan.

7. Guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berish holatlarining oldini olish va ularni o'z vaqtida aniqlash uchun so'roq qilish tergov harakatini o'tkazish davomida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar tasnifi ishlab chiqilgan.

## **II. Qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:**

Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish maqsadida qonun hujjatlariga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1) JPK 39<sup>2</sup>-moddasining oltinchi qismidan "yoki ko'rsatuvlar" degan so'zlarni chiqarib tashlash;

2) JPKning 91-moddasini quyidagi tahrirda oltinchi qism bilan to'ldirish:

*"So'roq jarayonini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish shart bo'lgan hollar ushbu Kodeksning 106<sup>1</sup>-moddasida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi".*

3) JPKning 106-moddasi ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarini quyidagi tahrirda bayon etish:

*"So'roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ushbu Kodeksning 106<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan hollardan boshqa holatlarda ham ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish qo'llanilishi mumkin.*

*Bayonnomada bundan tashqari, so'roq qilinuvchi tomonidan avvalgi so'roqlarda berilgan ko'rsatuvlarning o'qib eshittirilgani, ko'rsatuv berish jarayonida so'roq qilinuvchining hujjat yoki boshqa yozuvlardan foydalangani, so'roq qilinuvchiga so'roq davomida narsa va hujjatlar ko'rsatilgani, so'roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish qo'llanilganligi, ushbu yuzasidan so'roq qilinuvchi ogohlantirilganligi, foydalanilgan texnik vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar, ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish sharoitlari, agar ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish to'xtatib turilgan bo'lsa, uning sababi va muddati to'g'risidagi ma'lumotlar, so'roq qilinuvchining ushbu xususidagi bayonotlari qayd qilinadi. Fonogramma, videoyozuv va kinotasma bayonnomaga ilova qilinadi.*

*So'roq tugaganidan keyin bayonnoma o'qib chiqish uchun so'roq qilinuvchiga ko'rsatiladi yoxud uning iltimosiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi tomonidan unga o'qib beriladi. Agar so'roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish qo'llanilgan bo'lsa, so'roq qilinuvchiga ovoz, videoyozuv yoki kinotasvir namoyish qilinadi yoki eshittiriladi. So'roq qilinuvchi tomonidan kiritilgan qo'shimchalar ham ovoz, videoyozuv va kinotasvirga qayd qilinib, so'roq qilinuvchining ovoz, videoyozuv yoki kinotasvir to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi bayonoti bilan yakunlanadi. Bu haqda bayonnomaga qayd qilinadi".*

4) JPKni quyidagi mazmundagi 106<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish:

*"106<sup>1</sup>-modda. So'roq jarayonini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish shart bo'lgan hollar*

*Quyidagilarni so'roq qilish jarayoni ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish orqali qayd etilishi shart:*

1) *muayyan shaxsning ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarga ega ekanligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lib, u bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi mumkinligi yuzasidan asosli shubha tug'ilgan bo'lsa;*

- 2) o'ta og'ir jinoyatlar sodir etishda ayblanayotgan shaxslarni;
- 3) uzrli sabablarga ko'ra kelgusida sudda ishtirok eta olmaydigan shaxslarni;
- 4) nutqiy xususiyatlarini bayonnomada aks ettirish qiyin bo'lgan shaxslarni;
- 5) ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni;
- 6) tarjimon ishtirokida so'roq qilingan shaxslarni;
- 7) aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz qilgan yoki o'z qilmishiga amalda

*pushaymon bo'lgan shaxslarni.*

*Ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish so'roq qilinuvchining ko'rsatuvlari va so'roq jarayonini to'liq aks ettirishi lozim. So'roqning bir qismini ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish, shuningdek, so'roq davomida berilgan ko'rsatuvlarni ataylab takrorlashga yo'l qo'yilmaydi.*

*Ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish orqali o'tkazilgan so'roq qilish jarayoni ushbu Kodeksning 106-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilingan holda bayonnomaga qayd qilinadi.*

*Ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish orqali qayd qilingan ko'rsatuvlar boshqa tergov harakatlari chog'ida ko'rsatilgan taqdirda, bu haqda tegishli tergov harakati bayonnomasida aks ettirilishi lozim";*

5) JPK 108-moddasining nomini quyidagi tahrirda bayon etish va yangi tahrirdagi ikkinchi qism bilan to'ldirish:

*"108-modda. Qo'shimcha va qayta so'roq*

*Qayta so'roq quyidagi hollarda o'tkaziladi:*

1) birinchi so'roq qilish paytida protsessual normalar va talablarga rioya etilmagan bo'lsa;

2) ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo'yilgan shaxsga berilishi kerak bo'lgan ish uchun muhim ahamiyatga molik yangi savollar tug'ilganda;

3) so'roq qilingan shaxs ilgari bergan ko'rsatuvlarini rad etsa va yangitdan ko'rsatuv berish istagini bildirsa;

4) guvoh yoki jabrlanuvchining ilgari bergan ko'rsatuvidagi ma'lumotlarning qisman yoki butunlay yolg'on ekanligiga asosli shubha tug'ilgan bo'lsa".

6) JPK 117-moddasining ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish va uchinchi qism bilan to'ldirish:

*"Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydilar, biroq ular o'zlarining roziliklari bilan guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida ko'rsatuv berishga rozi bo'lgan hollarda bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiriladilar.*

*Shaxs bir qilmish yuzasidan qo'zg'atilgan bir jinoyat ishi doirasida ham jabrlanuvchi, ham gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan hollarda guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida, mahkum yoki oqlangan shaxs tugatilgan yoki hukm chiqarilgan ishning alohida ish yurituviga ajratilgan qismi yuzasidan guvoh tariqasida so'roq qilinganida ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydilar".*

7) JPK 123-moddasining ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish:

*"Yuzlashtirib so'roq qilish oldidan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchi har bir so'roq qilinuvchidan navbat bilan ularning o'zaro tanishligi yoki*

tanish emasligini, o‘zaro munosabatlari qanday ekanligini so‘raydi va javoblarini tinglaydi. *Bunda guvoh yoki jabrlanuvchi ishtirok etayotgan bo‘lsa, ular, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarni istisno qilganda, ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilish haqida ogohlantirilishi lozim.* Shundan so‘ng har bir so‘roq qilinuvchiga navbat bilan qarama-qarshilik kelib chiqqan holatlar to‘g‘risidagi savollarga javob berish taklif qilinadi. Basharti qarama-qarshilik bir nechta masalaga yoki bir nechta holatga taalluqli bo‘lsa, yuzlashtirishda har ikki so‘roq qilinuvchi bir masala yoki bir holat bo‘yicha ko‘rsatuv bergach, ularga keyingi masala yoki keyingi holat to‘g‘risidagi savollar berilishi mumkin”.

8) JPKning 131-moddasini beshinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish:

“Tanib oluvchining ko‘rsatuvlari, shuningdek unga surishtiruvchi, tergovchi, sud, taraflar yoki boshqa shaxslar tomonidan berilgan savollar va qaytarilgan javoblar ushbu Kodeksning 106-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilingan holda bayonnomaga yozib boriladi. *Basharti tanib oluvchilar guvoh yoki jabrlanuvchi bo‘lsa, ular, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarni istisno qilganda, ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilish haqida ogohlantiriladi va bu xususda bayonnomada qayd qilinib, ularning imzosi bilan tasdiqlanadi*”.

### **III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:**

1. Tergov harakatlarini o‘tkazish davomida shaxsning yolg‘on ko‘rsatuv berayotganligini aniqlash uchun uning tanasini alohida qismlariga (qo‘llar, oyoqlar, bosh) va yuz ifodalariga (ko‘zlar, qoshlar, lablar) e‘tibor qaratish, hissiyotlari va fikrlarining tashqi ifodalanishini ko‘rsatuvchi barcha belgilarini o‘zaro solishtirish orqali baholash, shubhali belgilar namoyon bo‘lganida, ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, yolg‘onni ifodalovchi belgilarni bir yoqlama talqin qilishdan qochish, ayrim namoyon bo‘layotgan belgilarga ko‘ra guvoh yoki jabrlanuvchi yolg‘on ko‘rsatuv bermoqda, deb aniq xulosa chiqarmaslik, so‘roq jarayonida to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilish va ishdagi boshqa dalillar bilan taqqoslash lozimligi asoslantirilgan.

2. Guvoh yoki jabrlanuvchini yolg‘on ko‘rsatuv berayotganligi haqida tergovchida shubha paydo bo‘lsa, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish, eksperiment va ekspertiza tayinlash kabi tergov harakatlarini o‘tkazish, shuningdek ko‘rsatuvlardagi ma‘lumotlarga tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish yo‘li bilan oydinlik kiritish, tergovga qadar tekshiruv materiallarini o‘rganish va ularni jinoyat ishidagi mavjud dalillar bilan qiyoslash orqali aniqlashi mumkinligi asoslantirilgan.

3. Guvoh yoki jabrlanuvchilarni ko‘rsatuv berishdan bosh tortishi yoki bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishining oldini olish, shuningdek ular tomonidan to‘g‘ri ko‘rsatuvlar berilishiga erishish maqsadida tergov harakatlarini o‘tkazish davomida xalqimizning mentalitetiga xos bo‘lgan muqaddas kitoblar va axloqiy normalarni o‘zida aks ettirgan hikmatlardan unumli foydalanish zarurati asoslantirilgan.

4. So‘roq qilishda guvoh yoki jabrlanuvchining o‘zi, oila a‘zolari yoki yaqin qarindoshlariga o‘ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo‘q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o‘zga g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinish holatlari mavjud yoki mavjud emasligiga oydinlik kiritish shartligini asoslab berilgan.

5. Guvoh yoki jabrlanuvchilarni bila turib bergan yolg'on ko'rsatuvlarini aniqlashda quyidagi taktik usullar ijobiy samara berishi asoslab berilgan: audio yoki video yozuvlardan foydalanish; qonunda bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun belgilangan jinoiy javobgarlikning mazmunini batafsil tushuntirish; tezkor-qidiruv faoliyati natijalari va ishda mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlardan samarali foydalanish; real voqelikka to'g'ri kelmaydigan ko'rsatuvlar bo'yicha shaxslarni qo'shimcha so'roq qilish; jinoyat ishida guvoh yoki jabrlanuvchining yolg'on ko'rsatuv berayotganligini fosh etuvchi dalillar borligiga ishontirish; so'roq qilinuvchiga voqealarning ehtimoliy rivojlanishini taqdim etish; ko'rsatuv berayotgan insonning e'tiqodi va boshqa o'ziga xos jihatlaridan unumli foydalanish.

6. So'roq qilish tergov harakatini o'tkazish davomida shaxslar bilan to'g'ri psixologik aloqa o'rnatish ular tomonidan bila turib yolg'on ko'rsatuv berish holatlarining oldini olish hamda ularni o'z vaqtida aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslantirilgan.

7. Poligraf testi so'roqning bir qismi emas, balki ekspertiza tergov harakati doirasida o'tkaziladigan tekshiruvning bir ko'rinishi sifatida faqat shaxsning roziligi yoki iltimosi bilan amalga oshirilishi mumkinligi hamda uning natijalari jinoyat ishi bo'yicha daliliy kuchga ega bo'lmasligi lozimligi asoslantirilgan.

8. Tergov harakatlarini o'tkazishda bilan bila turib yolg'on ko'rsatuv berish holatlarining oldini olish va ularni o'z vaqtida aniqlash hamda tergovchining asosiy e'tiborini ko'rsatuv berayotgan shaxsning xatti-harakatlari va ko'rsatuv berishining o'ziga xos jihatlariga qaratilishini ta'minlash maqsadida so'roq qilish natijalari bo'yicha bayonnomani rasmiylashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish lozimligi asoslantirilgan.

9. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ga tegishli holatlar yuzasidan guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida JPKning 116-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya qilgan holda faqatgina o'zlarining roziliklari hamda ushbu rozilikning o'zida ifodalagan yozma arizasi asosida so'roq qilish lozimligi asoslantirilib, Tergov amaliyotida so'roq qilishni samarali tashkil etilishini ta'minlash maqsadida, ko'rsatuv berishga rozilik haqidagi ariza va so'roq bayonnomalarining namunaviy blanklari tayyorlangan.

10. Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatini aniqlashda psixofiziologik ekspertizaning o'rni muhim ekanligi asoslantirilib, bu turdagi ekspertizani tayinlash bo'yicha tergovchining qarori va ekspert oldiga qo'yilishi lozim bo'lgan savollar namunasi ishlab chiqilgan.

11. Ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi asosida guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatlarini tergov qilishda "*Dalillar papkasi*" va "*Uchinchi shaxs mavzusi*" usulidan foydalanish lozimligi asoslantirgan.

12. Huquqni qo'llash amaliyotida voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olish uchun AQSHning Milliy bolalar salomatligi va inson taraqqiyoti instituti (NICHD) tomonidan ishlab chiqilgan "*Voyaga yetmaganlarni so'roq qilish protokoli*"da belgilangan qoidalardan samarali foydalanish lozimligi asoslantirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ  
ОРГАНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

---

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН ЙУЛЧИБОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ,  
СВЯЗАННЫХ С ДАЧЕЙ ЗАВЕДОМО ЛОЖНЫХ ПОКАЗАНИЙ  
СВИДЕТЕЛЯ ИЛИ ПОТЕРПЕВШЕГО**

**12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика, оперативно-розыскное право и  
судебная экспертиза**

**АВТОРЕФЕРАТ**

диссертации на соискание ученой степени доктора философии  
по юридическим наукам (Doctor of Philosophy)

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.4.PhD/Yu1246.**

Диссертация выполнена в Академии министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (<https://proacademy.uz>) и на информационно-образовательном портале (<http://library.ziyonet.uz>).

**Научный руководитель:** **Муродов Бахтиёржон Баходирович**  
доктор юридических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Астанов Истам Рустамович**  
доктор юридических наук, профессор  
**Баракаев Лазизжон Отакулович**  
доктор философии по юридическим наукам

**Ведущая организация:** **Университет общественной безопасности**  
**Республики Узбекистан**

Защита диссертации пройдёт на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc. .31/31.12.2020.Yu.67.01 при Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан “16” июня 2025 года в “15:00” ч (Адрес: 100047, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Рихсилий, 9. Тел.: (99871) 202-04-96; e-mail: [info@proacademy.uz](mailto:info@proacademy.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан (регистрационный номер № 58). (Адрес: 100047, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Рихсилий, 9. Тел.: (99871) 202-04-96.

Автореферат диссертации распространён 04 июня 2025 года.

(Реестровый протокол №23 от 04 июня 2025 года).

**М.А. Аминжонова**  
Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор юридических наук,  
профессор

**Ш.И. Шайзаков**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор юридических наук,  
профессор

**В. Каримов**  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению учёных степеней,  
доктор юридических наук,  
профессор

## ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в быстром и полном раскрытии преступлений, изобличении лица, совершившего преступление, возмещении имущественного ущерба потерпевшему, недопущении привлечения к ответственности невинного и установлении справедливости по уголовному делу показания представителей общественности, в частности свидетелей и потерпевших, имеют важное значение. В Дохинской декларации, посвященной обеспечению участия общественности в предупреждении преступности и отправлении правосудия, отражена необходимость эффективного использования содействия граждан и общественных организаций в вопросах профилактики правонарушений и борьбы с преступностью<sup>1</sup>. По данным Международной ассоциации следователей, показания свидетелей и потерпевших послужили основным источником доказательств в быстром и полном раскрытии 42 процентов всех видов совершенных преступлений и доказывании вины лиц, их совершивших<sup>2</sup>. Тем не менее, согласно отчету организации «Innocence Project», тот факт, что лишь в США 69 процентов лиц, оправданных по результатам ДНК-теста, были привлечены к уголовной ответственности именно из-за заведомо ложных показаний свидетелей и потерпевших, требует особого внимания к данному вопросу<sup>3</sup>.

В мире проводятся исследования по обеспечению активного участия свидетелей и потерпевших в осуществлении правосудия, предотвращению дачи заведомо ложных показаний свидетелем или потерпевшим в деятельности органов дознания и следствия. В частности, актуальное значение имеет исследование проблем, связанных с разъяснением сущности «дачи заведомо ложных показаний», выявлением причин и факторов дачи заведомо ложных показаний в правоприменительной практике, разработка оснований привлечения к ответственности лиц, давших заведомо ложные показания на стадии доследственной проверки, совершенствование существующих методик определения ложности или правдивости показаний лиц, классификация и последовательность (алгоритм) производства следственных и процессуальных действий по предупреждению и выявлению дачи ложных показаний свидетелем и потерпевшим, эффективное использование современных технологий в выявлении ложных показаний и доказывании вины лица, оснащение служебного кабинета следователя предметами и вещами, способными оказывать положительное влияние на показания лиц, а также дальнейшее совершенствование обеспечения личной безопасности лиц.

